

## BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARINI YOZUVGA O'RGATISHNING SAMARALI YO'LLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada birinchi sinf o'quvchilarini yozuvga o'rgatishning samarali yo'llari haqida so'z boradi. Yozuv ta'limi boshlang'ich sinfda o'quvchilarning intellektual va ijodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Maqolada yozuv ko'nikmalarini shakllantirish uchun qo'llaniladigan metodlar, texnikalar va dars jarayonida qo'llaniladigan interaktiv usullar haqida ma'lumot berilgan. O'quvchilarning yozuvga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning yozma fikr bildirish qobiliyatini rivojlantirish va nutq madaniyatini yuksaltirishda samarali usullarni amalda qo'llash zarurligi ko'rsatilgan. Shuningdek, individual va guruhli ishlash, kreativ yozish faoliyatlari, o'yinlar va vizual materiallar yordamida o'quvchilarning yozuv faoliyatini yanada samarali va qiziqarli qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun foydali tavsiyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ularning pedagogik faoliyatida yordamchi qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** birinchi sinf, yozuv mashqlari, yozuv jarayoni, pedagogik yondashuv, husnixat, o'yinlar.

## ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ ПИСЬМУ ПЕРВОКЛАССНИКОВ

**Аннотация.** В данной статье речь пойдет об эффективных способах обучения письму первоклассников. Письменное образование играет важную роль в интеллектуальном и творческом развитии учащихся в начальной школе. В статье представлена информация о методах, приемах, применяемых для формирования навыков письма, и интерактивных методах, применяемых в процессе урока. Показана необходимость применения на практике эффективных методов повышения интереса учащихся к письму, развития у них умения выражать письменную обратную связь, повышения культуры речи. Также были проанализированы возможности сделать письменную деятельность учащихся более продуктивной и увлекательной с помощью индивидуальной и групповой работы, творческих письменных занятий, игр и наглядных материалов. В статье содержатся полезные рекомендации для учителей начальных классов, которые служат вспомогательным пособием в их педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** первый класс, письменные упражнения, процесс письма, педагогический подход, гусеница, игры.

## EFFECTIVE WAYS TO TEACH FIRST GRADERS TO WRITE

**Annotation.** This article will talk about effective ways to teach first graders to write. Writing education is important in the intellectual and creative development of students in the primary school. The article provides information about the techniques, techniques used to form writing skills, and the interactive techniques used in the course of the lesson. It has been shown that it is necessary to increase students' interest in writing, to develop their ability to express written opinions, and to practice effective methods in elevating the culture of speech. There has also been an analysis of individual and group work, creative writing activities, games, and opportunities to make students' writing activities more productive and interesting using visual materials. The article included useful recommendations for primary school teachers, serving as an auxiliary guide in their pedagogical activities.

**Keywords:** *first class, writing exercises, writing process, pedagogical approach, correspondence, games.*

Birinchi sinf o'quvchilarini yozuvga o'rgatish jarayoni ularning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda juda muhim ahamiyatga ega. Yozuv darslarida pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchiga chiroyli yozuv mashqlariga amaliy yordam berishi bilan birga mustaqil fikrlaydigan, ma'nan yetuk, barkamol shaxslarga aylantiradi. Chiroyli yozuvga ega bo'lish uchun o'quvchilar tomonidan ham, o'qituvchi tomonidan ham har bir harf aniq yozilishiga erishish, buning uchun ko'p mashq qilish kerak.

O'quvchilarni yozuvga o'rgatish masalasi M.G'ulomovning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish", "Husnixat metodikasi", "Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish", "To'g'ri va chiroyli yozing", "Chiroyli yozuvga o'rgatish" kabi kitoblari hamda X.G'ulomovning adabiyotlari, Y.Y.Azimovning "Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari" kitobi va R.A.Qo'ldoshev, Sh.Y.Yusufzodalarning tadqiqot ishlari o'z aksini topgan.

Birinchi sinf o'quvchilarining savodini chiqarishda ularning yoshi va jismoniy tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Yozish va o'qish malakalarining shakllantirishning birinchi zinalarida bola yozish va o'qish mashqlarini bajarish uchun o'zining bor kuchini – jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini sarflaydi: yozuv jarayonida o'quvchining hamma muskullari, ayniqsa qo'l va yelka muskullari, bel va oyoq tomirlari hamda asab torlari ancha taranglashadi. Shuning uchun o'qituvchilar bu jarayonni sezgirlik bilan kuzatadilar, barmoq va qo'l muskullarining harakat tezligi, partada to'g'ri o'tirishi, umuman o'quvchilarning jismoniy va ruhiy holati hamda tayyorgarligini hisobga oladilar.

Tabiiyki, yozish va o'qish jarayonlari dastlabki bosqichlarda jismoniy va ruhiy siqilishlar ostida o'tadi. Bola birinchi mushkilot va muvaffaqiyatsizlikni qiyinchilik bilan hazm qiladi. Shuning uchun jismoniy va ruhiy zo'riqishlar ham kutilgan samarani bermaydi. O'quvchi o'z xatosini sezadi va tushunadi, lekin o'quvchisining yo'l – yo'riqlari bilan ham uni bartaraf etolmaydi. Bunday hollarda o'qituvchi o'quvchini ruhiyati – kayfiyatini ko'tarish uchun turli xil lahzalik sho'x o'yinlar tashkil etadi. Bunday lahzalik jismoniy va ruhiy tanaffuslar bolaning ruhiy zo'riqishini mo'tadillashtiradi va bolaning mavzuni o'zlashtirish, qabul qilish darajasini oshiradi. Aytganlarimiz o'sha vaqt o'z samarasi – mevasini beradiki, boshlang'ich sinf o'quvchisi, xususan birinchi sinf o'quvchisining ta'lim olishi uchun ham tashkiliy va metodik ishlar a'lo darajada tayyorlangan bo'lishi lozim.

Rivojlantiruvchi muhit yaratish birinchi sinf o'quvchilarining grafik malakalarini shakllantirishga katta ahamiyat kasb etadi. Rivojlantiruvchi muhit birinchi navbatda o'quvchilarning ish joyini metodik jihatdan to'g'ri, bexato va samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu muhitda birinchi sinf o'quvchisi o'zini ancha yengil va ishonchli his etadi.

Inson qo'li erta rivojlana boshlaydi va turli harakatlar orqali asta-sekin yaxshilanadi. Qo'lning mushak tizimi o'zining turli xil sezuvchanligi va xilma-xil harakatlari bilan nafaqat harakat apparatining faol bo'g'ini, balki o'ziga xos sezgi organidir. Birinchidan, qo'lning mushak tolasining asosiy farqlanishi allaqachon tug'ilish paytida sodir bo'ladi; ikkinchidan, to'rt yildan so'ng mushak tolasini diametrining o'sishi biroz oshib, yetti yoshga kelib ancha sezilarli qiymatga yetadi; uchinchidan, qo'l mushaklaridagi motor nerv sonlarining asoratlari maktabgacha yoshda eng tezlashadi hamda 7 yoshida bolaning mushaklari murakkab qurilgan vosita apparatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, bolaning harakatlarining asabiy tartibga solinishi hali ham nomukammal, qo'lning mayda mushaklari yetarli darajada rivojlanmagan, bilak va barmoqlarning falanjlari ossifikatsiyasi tugamagan, bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarga grafik harakatlarni o'rgatishda alohida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ma'lumotlariga ko'ra, 95% odamlarda o'ng qo'l faolroq, qolgan 5% orasida chap qo'lning funksiyasi ustunlik qiladigan odamlar va o'ng va chap qo'llarni deyarli teng ravishda ishlatadigan ambidexterslar ham bor. O'ng yoki chap qo'l bilan faol harakatlarga moyillik faqat odamlarda aniq namoyon bo'ladi.

Endigina maktab ostonasiga qadam qo'yib, yozishni o'rganish jarayonida turli xil qiyinchiliklarni (ruchka va yo qalamni to'g'ri tuta bilmaslik, daftar qatorida to'g'ri yoza olmaslik, qo'l mushaklarini tez-tez og'rishi, qo'lni tez charchashi, noto'g'ri pozitsiya, xunuk va chalkash yozuv, qalamni noto'g'ri ushlab turish, qog'ozni juda qattiq bosish, miyopi, disgrafiya (yuqori aqliy funksiyalarning shakllanmaganligi sababli doimiy, takroriy xatolarda namoyon bo'ladigan yozish jarayonining qisman buzilishi)) boshidan kechirayotgan o'quvchilarga zamonaviy yozishga ko'maklashuvchi vositalar bilan yordam berish mumkin. Yozish texnikasini tuzatish uchun nozul, yozish simulyatori, to'g'ri yozish uchun o'rgatuvchi nozul va boshqalar. Bu qurilmalar bolalarga qalam va ruchkalarni to'g'ri ushlab turishga yordam beradi: barmoqlar endi og'rimaydi, bolaning yozish paytida tutadigan holati tuzatiladi, ushlash zaiflashadi (bu osonroq, tezroq va chiroyli yozishni o'rganishga yordam beradi).



1-rasm. Nozul simulyatori

Birinchi sinf o'quvchilarini yozuvga o'rgatish – bu ular uchun muhim qadam bo'lib, nafaqat yozuv malakalarini rivojlantirish, balki o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashni o'rganishning dastlabki bosqichidir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun bir nechta usullarni qo'llash mumkin:

- o'qish va yozishning asoslarini o'rgatish;
- jismoniy mashqlar orqali yozuvni yaxshilash;
- o'yinlar va kreativ yondashuv;
- yozuvni tahlil qilish;
- tegishli vositalardan foydalanish va hokazo.

| Alifbo va harflar bilan tanishtirish                                                                                                     | Yozish mashqlari                                                                                                                                                              | Sodda so'zlar va jumlar yozish                                                                                                                                            |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Birinchi bosqichda harflar, ularning shakllari va tovushlari o'rgatiladi. Har bir harfni yozishning to'g'ri usulini o'rgatish juda muhim | Har bir harfni yozishga alohida e'tibor qaratish. O'quvchilarga harfni to'g'ri yozishni o'rgatish uchun naqshli yoki shablonli yozuv mashqlari yordamida shug'ullanish mumkin | Yozuvni boshlashda oddiy so'zlar va jumlar orqali mashq qilish zarur. Masalan, "non", "olma", "kitob" kabi so'zlar bilan boshlash, keyinchalik esa oddiy jumlar o'rgatish |

1-jadval. O'qish va yozishning asoslarini o'rgatish.

Jismoniy mashqlar orqali yozuvni yaxshilashda qo'l mushaklarini juda muhim. Buning uchun tugmalarni bosish, rangli qalamlar yordamida shakllarni va chizmachilikni bajarish, shuningdek, turli xil qog'oz va vositalar bilan ishlash yordam beradi. Yozishda bo'shliq qoldirish, harflarni to'g'ri joylashtirish va ularni mos ravishda joylashtirishni o'rgatish lozim. O'quvchi to'g'ri yoki noto'g'ri yozilgan harflarni bir-biridan ajrata olishi, ulardagi asosiy kamchiliklar nimadan iborat ekanligini ko'rsata olishi lozim. Shuning uchun ham o'quvchilarda harfning shaklini analitik ko'rish malakasini o'stirish talab etiladi. Analitik ko'rish malakasi faqat to'g'ri va noto'g'ri yozilgan harflarni solishtirish orqali o'stirib boriladi. Bu uchun o'qituvchi elektron

doskani ikki qismga ajratib, bir qismida noto'g'ri yozilgan harfni, ikkinchi qismiga noto'g'ri yozilgan shaklini ko'rsatadi. Ularni bir ekranga birlashtirib, qiyoslaydi va noto'g'ri yozilgan harfni "kamchiliklari"ni kattalashtirib ko'rsatadi. Bu o'quvchilar xotirasida muhrlanib qoladi va ular bunday xatolarni bartaraf etish yo'llarini eslab qoladilar.

O'yinlar va kreativ yondashuv bilan yozishni o'rgatishda o'yinlarning roli katta. Masalan, harflar bilan puzzle o'ynash, o'quvchilarni yozuvga qiziqtirish va ularning diqqatini kuchaytirishga yordam beradi. Rasm chizish va unga mos yozuvlar yozish orqali o'quvchilarni kreativ ravishda o'rgatish mumkin. Masalan, o'quvchidan biror rasm chizishni so'rab, u rasimga tegishli so'z yoki jummalarni yozishni so'rash. O'quvchilarga o'z yozuvlarini va do'stlarining yozuvlarini tahlil qilishni o'rgatish, yozuvdagi xatoliklarni tuzatishga yordam beradi. Sodda grammatika va punktuatsiya bilan boshlang'ich bosqichda grammatika va punktuatsiyaning asosiy qoidalarini o'rgatish, yozuvni yanada oson va tushunarli qilishga yordam beradi. O'quvchilarga har kuni bir nechta oddiy yozuv mashqlari berish, yozuvni muntazam ravishda mashq qilishni odatga aylantiradi. O'quvchilarni muvaffaqiyatli yozuvlari uchun rag'batlantirish, ularni yanada faol va ishtiyqli bo'lishga undaydi.

Yozuvni o'rgatishda maxsus yozuv daftarlari, alifbo kitoblari va interaktiv dasturlardan foydalanish samarali bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, masalan, o'quvchilarga elektron qurilmalar orqali yozuvni o'rgatish, qiziqarli va samarali bo'lishi mumkin. Ushbu metodlarni sinfda qo'llash, o'quvchilarga yozuvni o'rganishda muvaffaqiyatli natijalar beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azimov Y.Y., R.A.Qo'ldoshev. "Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari" (Metodik qo'llanma)-Toshkent. "Turon Zamin Ziya" nashriyoti, 2017.-132 b.
2. Қўлдошев Р. А. Бошланғич синф чапақай ўқувчиларни ёзувга ўргатишнинг илмий-назарий асослари //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1120-1129.
3. G'afarovna, Jumayeva Habiba. "Savod o'rgatishga tayyorgarlik bosqichida o'qish va yozuvga o'rgatish". Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali 2.3 (2022): 1-4.